



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-sentabr

457-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 9-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlash va eksportni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5286-son Farmoniga chorvachilik sohasida eksportni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish kiritish haqida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-125-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 414-6-0-Q/24—sonli qarori to‘g‘risida

Chorvachilik sohasida eksport salohiyatini kengaytirish orqali valyuta tushumini oshirish va mahalliy chorva mahsulotlarining tashqi bozorlarga kirib borishi uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-125-son Farmoni va Namangan viloyati hokimining 2024-yil 9-sentyabrdagi 414-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlash va eksportni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5286-son Farmoniga chorvachilik sohasida eksportni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish kiritish haqida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-125-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 9-sentyabrdagi 414-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-125-son Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlash va eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5286-son Farmoniga 1-ilovaning 2-pozitsiyasi quyidagi tahrirda:

“

2.	Go‘sh va qo‘shimcha ozuqabop go‘shli mahsulotlar	0201 – 0210 (avtomatlashtirilgan majmualar bilan jihozlangan so‘yish korxonalarini tomonidan import qilingan chorva mollaridan 0201 va 0202 TIF TN kodlari bo‘yicha hosil bo‘lgan go‘shning umumiy vaznini 50 foizigacha, 0203, 0207, 0205 00 yordamchi pozitsiyalari bo‘yicha eshak, xachir yoki ot xachirning go‘shli, 0206 30 000 – 0 206 80 910 0, 0206 90 910 0, 0208 10 kodlari bo‘yicha cho‘chqa, xachir yoki ot xachirning go‘shli qo‘shimcha ozuqabop mahsulotlari,
----	--	--

		shuningdek, 0208 50 000 0, 0208 90 700 0, 0209, 0210 11-0210 19, 0210 99 410 0, 0210 99 490 0, 0210 99 710 0, 0210 99 790 0, 0210 99 800 0 dan tashqari).
--	--	---

” bayon etilishi e’tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov